

1. "Raqamli O'zbekiston – 2030" dasturi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning farmoni. 2020-yil 5-oktyabr.
2. O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi. "Sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish bo'yicha strategiya".
3. Rashidov, A. (2023). "O'zbekistonda sun'iy intellektni rivojlantirish strategiyalari". Innovatsion Texnologiyalar Jurnali, 5(3), 45-58.
4. Karimov, B. & Toshpulatova, N. (2022). "Sun'iy intellektning ta'lim tizimidagi o'rni va istiqbollari". O'zbekiston Milliy Universiteti Ilmiy Axborotnomasi, 10(2), 78-89.
5. World Economic Forum (2023). Artificial Intelligence in Emerging Markets: Opportunities and Challenges. WEF Publications.
6. United Nations Development Programme (UNDP) (2022). AI for Sustainable Development: Case Studies from Central Asia.
7. O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi. "Sun'iy intellekt va raqamli transformatsiya" <https://digital.gov.uz>
8. IT Park Uzbekistan. "O'zbekistonda sun'iy intellekt startaplari va investitsiyalar" <https://it-park.uz>
9. Statista (2023). "Global AI Investment Trends and Uzbekistan's Position in the Market" <https://www.statista.com>

ONA

Qahramanova Durdona Asqarboyevna

Jizzax davlat pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

Har soniya holim so`rar insonim yo`q,
Dunyosida na davr, na davronim yo`q.
Sizga yetar bir mehribon insonim yo`q,
Qadrez yomon bilinyapti sizni ona!

Kunda yuz bor holim so`rab tolmas ediz,
Xasta bo`lsam halovatni bilmas ediz.
Yana ozroq dunyoyimda yurmasmidiz,
Qadrez yomon bilinyapti sizni ona!

SHIRCHOY

Uzoqboyeva Fotima Elyor qizi

TMC Institute in Toshkent

Qish. Juda sovuq. Qishda ko`p jonzotlar isinishni bilgani kabi. Anhorda kelinchakdek suzilib oqib keladigan suv ayni paytda o`zining ustiga oq gumbazli yopinchig`ini tashlab olgan. Va u ham harakatdan to`xtamagan hayot manbaini yopinchiqqa aylanishidan himoya qilib turgandek go`yo. Hovlimizdagি bir dona tol daraxtining uchidagi ingichka shoxiga, bahorda o`zimdan kichkina bo`lgan o`rtoqlarim bilan uchirgan varragim xuddi skeletni eslatib turgandek ilinib yotardi. Uni hech kim payqamasdi. Tinmay papirus chekib turgandek, har bir uyning mo`risidan tutun erkinlikka chiqqan qush kabi yoyilib, tarqalib, har xil shakllarga aylanib ko`kka uchib ketmoqda. Eng qizig`i shundaki, har tong ertalab derazada muzdan rasm chizilgan bo`lib, shunchalik chiroylı ko`rinar ediki, men ayozboboning mahorati deb o`ylardim. Ammo... Hozir eslasam, kulgim keladi, nahotki kun sovuq ekanligini natijasida paydo bo`lgan bir san`at namunasi ekanligini anglamagan bo`lsam. Kim ham bolaligida ko`p narsaga aqli yetgan deb o`ylaysiz? Barcha qiziq hamda esda qolarli davrlarimiz mana shu bolalik onlarimizda sodir bo`lib, qarigan chog`imizda kulib, gohida quvonchdan yig`lab eslaydigan bu xotiralardir. Shu vaqtida buvim bilan bir dasturxon atrofida kitob mutolaa qilib o`tirar ekanmiz shunchalik berilib ketganidan buviming -qizim- degan gaplarini eshitmagan ekanmanmi?! yana bir marotaba bu so`zni balandroq aytganini his qildim va men labbay buvi degancha, xayolim kitobdagи voqealarda suzib yurgan edi. Kitob ichiga tushib qolib haligi qahramonning o`rniga o`zim o`ynayotgandek edim go`yo.